Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlaxonjon Usarovich	



DAVLAT QARZINI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Djurayev Paxlavonjon Usarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0007-1870-4275

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat qarzining milliy iqtisodiyot va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishidagi o'rni IMRAD uslubida tahlil qilingan. Kirish qismida davlat qarzining zarurati va xalqaro tajriba bilan bog'liq asoslar yoritiladi. Tadqiqot metodologiyasida statistik tahlil, taqqoslash va hujjatli manbalarni o'rganish usullaridan foydalanilgan. Tahlil qismida O'zbekiston Respublikasining tashqi va ichki qarzlari bo'yicha mavjud holat va asosiy ko'rsatkichlar (YAIMga nisbatan, eksportga nisbatan ulushi va boshqalar) batafsil ko'rib chiqilgan. Xulosa sifatida davlat qarzini samarali boshqarish yo'nalishida institutsional islohotlar, strategik rejalashtirish va qarz barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlar bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, tashqi qarz, ichki qarz, xalqaro moliyaviy institutlar, fiskal barqarorlik, YAIM, qimmatli qog'ozlar, qarz yuki, eksport daromadi.

Abstract: This article analyzes the role of public debt in the development of the national economy and social infrastructure, following the IMRAD structure. The introduction explains the rationale for public debt, supported by international practice. The methodology involves statistical analysis, comparative evaluation, and examination of regulatory frameworks. The results section provides detailed insights into Uzbekistan's external and domestic debt levels, including indicators such as debt-to-GDP and debt-to-export ratios. In the conclusion, the paper outlines recommendations for institutional improvements in debt management and mechanisms for ensuring long-term debt sustainability.

Key words: public debt, external debt, domestic debt, international financial institutions, fiscal sustainability, GDP, securities, debt burden, export earnings.

Аннотация: В статье проанализирована роль государственного долга в развитии национальной экономики и социальной инфраструктуры в соответствии со структурой IMRAD. В разделе «Введение» обоснована необходимость государственного долга на основе международного опыта. В качестве методологии использованы статистический анализ, сравнительный подход и изучение нормативно-правовых актов. В аналитической части представлены основные показатели внешнего и внутреннего долга Республики Узбекистан, включая его отношение к ВВП и экспортной выручке. В разделе «Выводы» даны предложения по институциональному совершенствованию управления долгом и укреплению долговой устойчивости.

Ключевые слова: государственный долг, внешний долг, внутренний долг, международные финансовые институты, фискальная устойчивость, ВВП, ценные бумаги, долговая нагрузка, экспортная выручка.

KIRISH

Davlat qarzini boshqarish milliy makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Qarzdorlik vositalaridan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuchli omillardan biri bo'lishi mumkin. Mamlakatning xalqaro kapital bozoridagi barqaror mavqei, qarz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi xalqaro moliyaviy institutlar va investorlar ishonchini oshiradi, bu esa qulay shartlarda qo'shimcha investitsiyalar oqimini ta'minlaydi. Bundan tashqari, davlat qarzining samarali boshqarilishi milliy valyutaga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, davlat tashqi qarzlarning ortishi va u bilan bog'liq xavf-xatarlar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ba'zi hollarda esa siyosiy oqibatlariga ham olib keladi. Har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanish jarayonida, ayniqsa, strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash kabi dolzarb vazifalarni hal etishda tashqi va ichki moliyaviy resurslarga muhtoj bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham davlat qarzlarning oqilona jalb qilinishi va ularning samarali boshqarilishi muhim masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi



“2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmonida [1] milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash yo‘nalishida davlat qarzlarini boshqarish samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda davlat qarzining ortib borayotgan hajmi jamoatchilikda turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham qarz yuki chegaralarini belgilash, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini baholash hamda davlat qarzini boshqarish bo‘yicha ilg‘or ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qarzining yuqori darajalari qarz barqarorligiga doir xavotirlarni yuzaga keltiradi. Foiz stavkalari oshganida, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari davlat moliyasiga bosimni kuchaytiradi. Iqtisodiy adabiyotlarda qayd etilishicha, davlat qarzdorligiga nisbatan boshqa xavotirli jihatlar ham mavjud. Garchi qarz hisobiga amalga oshirilgan davlat xarajatlari qisqa muddatda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkin bo‘lsa-da, qarz darajasining doimiy ravishda yuqori va o‘svuchan bo‘lishi uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin [2].

Davlat qarzi hajmi ortgan sari, hukumatning kapital bozorlaridan moliyaviy resurs jalb qilishi kuchayadi va bu holat xususiy sektor bilan raqobatga sabab bo‘ladi. Natijada davlat qarzi xususiy investitsiyalarni siqib chiqarish effektiga olib keladi. Bu ikki yo‘l bilan ro‘y beradi: birinchisi, davlat qarzi investitsion portfellar tarkibida real kapitalni almashtirishi; ikkinchisi esa xususiy investitsiyalar uchun moliyaviy resurslar narxining – ya‘ni qarz olish xarajatlarning – ortishiga olib keladi. Agar davlat qarzi yuqori darajaga yetib borsa, investorlar tavakkalchilik evaziga yuqoriroq daromad talab qiladilar, bu esa suveren obligatsiyalar daromadlilikini oshiradi [3].

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, davlat qarzi fiskal siyosat vositalaridan biri bo‘lib, u quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi: byudjet taqchilligini qoplash, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, pul-kredit siyosatini qo‘llab-quvvatlash, muayyan strategik loyihalarni moliyalashtirish. Davlat qarzi orqali hukumat investitsiya salohiyatini oshiradi va iqtisodiyotda muhim tarmoqlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larni tezda jalb etadi. Shu tariqa u kapital jamg‘arilishini tezlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Davlat qarzi bozor iqtisodiyotining ajralmas hodisasi bo‘lib, u to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ravishda davlat byudjeti holatiga, inflyatsiya darajasiga, xorijiy investitsiyalar hajmiga, valyuta kursiga va boshqa ko‘rsatkichlarga ta‘sir qiladi. Davlat qarzini boshqarish mexanizmlari pul muomalasini tartibga solish, ishbilarmonlik faolligi darajasini belgilash, davlat daromadlari va xarajatlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash hamda byudjet taqchilligini qoplashda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Moliyaviy resurslarning transchegaraviy harakatlanishi ko‘lamlarning kengayishi qarz kapitali bozorining jadallik bilan rivojlanishiga hamda davlatlar o‘rtasida barqaror kredit-qarz munosabatlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Tashqi davlat qarzining ortib borishi ko‘p jihatdan globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, u xalqaro kredit tizimining rivojlanishini tezlashtirmoqda. Globallashuv investitsiya jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi va yangi moliyaviy oqimlarni yuzaga keltiradi. Ushbu oqimlar qisqa vaqt ichida davlatlar o‘rtasida harakatlanib, kredit-qarz munosabatlari tuzilmasini tubdan o‘zgartirmoqda [6].

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi-yillarda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan davlat qarzlarini boshqarishga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mazkur sohaning ilmiy va amaliy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Davlat qarzlarining iqtisodiyotga ta‘siri bir vaqtning o‘zida ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Davlat qarzining past darajada bo‘lishi yoki byudjetning profitsit holatida yuritilishi natijasida moliya bozorida davlat qimmatli qog‘ozlariga ehtiyoj kamayadi. Bu esa, o‘z navbatida, moliya bozorida eng likvid vositalarning shakllanmasligiga olib keladi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga ega bo‘lishda faqat bank tizimiga bog‘liqligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, davlat xarajatlarning ortishi tashqi savdo balansida defitsitni yuzaga keltiradi [7].

Xalqaro moliya-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish va integratsiya jarayonlarini tashkil etish sharoitida davlat qarzi iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Rivojlanish darajasidan qat‘i nazar, aksariyat xorijiy davlatlarda ichki va tashqi davlat qarzi mavjud. Davlat qarzi dinamik ko‘rsatkich bo‘lib, u-yillar davomida o‘shishi yoki kamayishi mumkin. Qarz hajmining kamayishi bilan davlatga tushadigan qarz yuki ham kamayadi, shuningdek, qarzga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan mablag‘lar tejab qoladi [8].

Davlat qarzlarini boshqarishda uning turlarini hisobga olish va belgilangan iqtisodiy mezonlar doirasida harakat qilish dolzarb ahamiyatga ega. Shu boisdan, qarzni boshqarishda ma‘muriy vakolatlarni aniq belgilash hamda iqtisodiy mezonlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurdir [9].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmonida: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzi nafaqat milliy iqtisodiyotning muhim moliyaviy manbasi sifatida, balki qisqa va o'rta muddatli moliyaviy ehtiyojlarni qoplashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qarzini boshqarishda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tavsiyalariga amal qilish nihoyatda muhimdir, chunki belgilangan me'yorlardan oshib ketgan qarz darajalari kelgusida iqtisodiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot jarayonida umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy tahlil, istiqbolli prognozlash, mantiqiy va tarkibiy tahlil, shuningdek, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat qarzlarini boshqarishdagi muhim jihatlardan biri – ularni baholash metodologiyasini ishlab chiqish va milliy amaliyotda to'g'ri qo'llay olish hisoblanadi. Garchi davlatning ichki va tashqi qarzlariga xalqaro me'yorlar asosida chegaraviy miqdorlar belgilangan bo'lsa-da, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda boshqa omillarni inobatga olgan holda bu ko'rsatkichlar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, ko'plab xalqaro moliyaviy tashkilotlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga, ya'ni rivojlangan yoki rivojlanayotgan bo'lishiga qarab, mavjud bozor iqtisodiyoti holatidan kelib chiqib, tavsiya etiladigan chegaraviy miqdorlar va ularga mos metodologiyalarni ishlab chiqib taklif etadi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi davlat qarzining minimal miqdori yoki uni YAIMga nisbati bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Aksariyat xalqaro moliyaviy institutlar va yirik reyting agentliklari davlat tashqi qarzining xavfsiz darajasiga oid mezonlarni har xil talqin qiladilar. Fikrimizcha, ushbu mezonlar ichida ISSAI 5411 standarti (Oliy audit organlarining xalqaro standartlari – International Standards of Supreme Audit Institutions) bo'yicha berilgan tavsiyalar nisbatan keng qamrovli hisoblanadi. Xususan, iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar uchun oxirgi 10–15 yil davomida tavsiya etilgan qarz ko'rsatkichlari boshqa indikatorlar bilan birga aniqlik bilan keltirilgan (1-jadval).

Mazkur indikatorlarning har biri davlatning moliyaviy imkoniyatlarini baholash imkonini berish bilan bir qatorda, agar ular belgilangan me'yorlardan oshib ketsa, davlat qarzini boshqarish strategiyasiga tegishli o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritishni ham nazarda tutadi.

1-jadval. ISSAI 5411 xalqaro standarti bo'yicha tavsiya etiladigan davlat qarzlari indikatorlari bo'yicha minimal darajalari².

№	Indikatorlar	Qarzlarni xalqaro xisobdan chiqarish, %	Xalqaro valyuta fondi, %
1	Qarz qoldig'i/daromad	28-63	25-35
2	Qarzning joriy qiymati/daromad	88-127	200-300
3	Foizlar/daromad	4,6-6,8	7-10
4	Qarz/YaIM	20-25	25-30
5	Qarz/daromad	92-167	90-150

Ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlar davlat va hududiy miqyosda qarz barqarorligini ta'minlash hamda ularning chegaraviy miqdorlarini belgilashda turli metodologiyalardan foydalanadilar. Ba'zi hollarda qo'llaniladigan uslubiyatlar davlatning maxsus megaregulyatori tomonidan tartibga solinadi va institutsional tuzilmalar tomonidan tavsiya etiladi. Yuqorida biz Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan taklif etilgan metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqqan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash kerakki, Jahon banki tomonidan ham davlat qarzlarini boshqarish bo'yicha o'ziga xos tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu metodologiyaning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat qarz barqarorligini ta'minlash, balki istiqbolda qarzlarning optimal darajasi va tarkibini prognoz qilish imkonini ham beradi. Mazkur yondashuvga ko'ra, qarz darajasi va barqarorlik mezonlari (Debt Sustainability Framework – DSF) tegishli davlat organlari tomonidan muntazam monitoring qilinishi va yangilanib borilishi lozim. Bu esa ko'rsatkichlarning doimiy o'zgaruvchanligini va ularni yagona qat'iy mezon bilan chegaralash murakkabligini ko'rsatadi.

XVJning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga bag'ishlangan hisobotiga ko'ra, mamlakatimizning davlat qarzi hozirda "mo'tadil" darajada baholanmoqda. Masalan, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasining tashqi


² <https://www.issai.org/issai-in-action/> - Oliy audit organlarining xalqaro standartlari bo'yicha veb sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



qarzi 7,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, YAIMga nisbatan 18,7 foizni tashkil qilgan. Keyingi besh-yil davomida bu ko'rsatkich uch barobardan ziyod o'sib, 2021-yil yakunida 23,6 mlrd. AQSh dollariga yetgan va YAIMga nisbatan 38 foizga teng bo'lgan (1-rasm).

Xususan, davlat qarzining YAIMga nisbati 2022-yil boshida 38,0 foizdan 2023-yil 1 yanvar holatiga ko'ra 36,4 foizgacha pasaygan. 2022-yilda davlat qarzi 2,9 mlrd. AQSh dollariga oshgan bo'lsa-da, ayni vaqtda yalpi ichki mahsulot hajmi ham 11,1 mlrd. AQSh dollariga o'sgani sababli, qarzning YAIMga nisbati kamaygan. Bu holat davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash va samarali boshqarish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijobiy natija berayotganini ko'rsatadi.

2020-yildan boshlab, O'zbekistonda yangi jalb qilinadigan tashqi davlat qarzining hajmini qonuniy chegaralash amaliyoti joriy etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-dekabrda "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-655-sonli³ Qonuni asosida, 2020-yil davomida O'zbekiston nomidan yoki davlat kafolati ostida jalb etilishi mumkin bo'lgan yangi tashqi qarz shartnomalarining maksimal hajmi 5,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida belgilangan.



1-rasm. Davlat tashqi qarzi va davlat qimmatli qog'ozlari hajmi to'g'risida ma'lumot⁴.

2020-yil yakuniga ko'ra imzolangan yangi davlat tashqi qarz bitimlarining umumiy hajmi 5,35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. 2021-yildan boshlab esa davlat qarzining xavfsiz darajasini belgilash bilan birga, yangi jalb qilinadigan davlat ichki va tashqi qarz bitimlariga nisbatan ham qonun darajasida chegaralar o'rnatish amaliyoti joriy etildi.

Jahon banki tomonidan taklif etilgan Debt Sustainability Framework (DSF) – ya'ni qarzlarning barqarorligini baholash metodologiyasida – davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan minimal va maksimal chegaralari belgilangan bo'lib, ular quyidagi jadvalda (2-jadval) keltirilgan.

Mazkur yondashuvning yana bir muhim afzalligi – har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab qarz chegaralarining farqlanishidir. Shu bilan birga, bu metodologiya doimiy ravishda mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqiladi.

Biroq davlat qarzining iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridan yuqori tezlikda o'sib borishi mamlakatni inqiroz holatiga yaqinlashtirishi mumkin. Bunday vaziyatda davlat organlari tomonidan qarz yuki bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari sezilarli darajada kamayadi. Shu boisdan, qarzlarni boshqarishda real iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olish va tavakkalchiliklarni baholash zaruriyati ortib bormoqda.

3 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-dekabrda "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-655-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5179892>

4 https://api.mf.uz/media/menu_attachments/IB_2023_uz.pdf



Jahon banki tomonidan 2011-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan metodologiyaga ko'ra, davlat qarzining barqarorligini baholashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

- byudjet tavakkalchiligi (riski);
- davlat qarzining tarkibi (ichki va tashqi, muddatli tuzilma, valyuta xatarlariga bog'liqlik);
- davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va fiskal imkoniyatlari;
- tashqi moliyaviy sharoitlar, global risklar va boshqa tegishli ko'rsatkichlar.

2-jadval. Davlat qarzining chegaraviy miqdorlari⁵.

Ko'rsatkichlar ning chegarasi	Davlat tashqi qarzining joriy qiymati, foizda		Qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari, foizda		Davlat umumiy qarzining joriy qiymati, foizda
	YaIM	Eksport	YaIM	Eksport	YaIM
Quyi	30	140	10	14	35
O'rta	40	180	15	18	55
Yuqori	50	240	21	23	70

2013-yildan boshlab Jahon banki (JB) va Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan alohida guruh davlatlar uchun davlat qarzini baholash mezonlarining tarkibi qayta ko'rib chiqildi. Bu yondashuvda ko'plab vaziyatlarda davlat qarzining YAIMga bog'liqligini nazarda tutuvchi yangi modifikatsiyalar kiritildi. Xususan:

iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar uchun – davlat qarzining yuqori chegarasi YAIMga nisbatan 50 foiz miqdorida;

iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar uchun – YAIMga nisbatan 60 foiz miqdorida.

Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari esa rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar uchun mos ravishda YAIMga nisbatan 10 va 15 foiz darajasida bo'lishi belgilangan.

2018-yilga kelib, JB va XVJ tomonidan ishlab chiqilgan qarz barqarorligiga oid tavsiyaviy metodologiyalarga qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, quyidagi jihatlarga urg'u berildi:

qarz yukining o'zgarishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar asosida shakllantirilgan birlashtirilgan (umumlashtirilgan) ko'rsatkichlardan foydalanish;

davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va davlat qarzining asosiy bazaviy prognozlarini chuqur tahlil qilish.

Mazkur yondashuvlar qarz barqarorligini aniqlashda faqat YAIM bilan bog'liq nisbiy ko'rsatkichlargaagina emas, balki iqtisodiy faollik, fiskal imkoniyatlar, investitsion muhit va demografik omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki qarz manbalari yoki davlat daromadlari hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biroq qo'shimcha kapitalga bo'lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozorlaridan moliyaviy resurslarni jalb qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday sharoitda jalb etilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha samarali nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish va har bir jalb qilingan kapital birligining qaytariqlilik darajasini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

So'nggi-yillarda davlat rahbari tomonidan tashqi qarz mablag'laridan oqilona foydalanish, ayniqsa ularni ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 6,4 % ga o'sgan bo'lib, bu natija asosan ichki talabning ortishi, real daromadlarning o'sishi va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan sarmoyalar bilan izohlanadi. XVJ 2025-yil uchun O'zbekiston YAIM o'sishini 5,9 % deb prognoz qilgan, bu o'sish ichki talab va investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatadi.

Davlat qarzi va tashqi qarz miqdori oshishda davom etmoqda, ammo bu o'sish nazorat ostida bo'lib, xalqaro reyting agentliklari tomonidan ijobiy baholanmoqda. Tashqi qarz va davlat qimmatli qog'ozlari hajmining ortishi, davlat tomonidan infratuzilma, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlardagi yirik loyihalarga investitsiya kiritilayotganidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, so'nggi yetti-yil ichida davlat tomonidan jalb qilingan qarz hajmi ikki barobarga oshgan. Shu bilan birga, bu davr mobaynida iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayonlari faollashgan va YAIM hajmi ham sezilarli darajada o'sgan. Masalan, 2017-yilda YAIM hajmi 317,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 3,8 barobar oshib, 1204,1 trln. so'mga yetgan.

5 <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/37224> - Jahon bankining-yillik xisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Agar XVJ va Jahon banki tomonidan taklif etilgan qarzlarning barqarorligi chegaralari bo'yicha baholov o'tkazilsa, tashqi qarzlarning o'sish sur'ati ushbu chegaralardan 0,7 foiz punktga kam bo'lgani aniqlanadi. Risk darajasi nuqtayi nazaridan esa, O'zbekiston davlat qarzi xavfsiz (past) zonadan o'rta xavf chegarasiga yaqinlashib borayotganini ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.
2. Ahlborn M., Schweickert R. Public debt and economic growth – Economic systems matter. *International Economics and Economic Policy*, 2018, 15(2), 373–403.
3. Francesco Grigoli, Damiano Sandri. Public debt and household inflation expectations, *Journal of International Economics*, Volume 152, 2024, 104003, ISSN 0022-1996, <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2024.104003>.
4. Eugenia Ramona Mara, Raluca Maran. Are fiscal rules efficient on public debt restraint in the presence of shadow economy? *Finance Research Letters*, Volume 64, 2024, 105495, ISSN 1544-6123, <https://doi.org/10.1016/j.frl.2024>.
5. Бекмурзаев И.Д., Хажмурадов З.Д., Хажмурадова С.Д. Сущность, методы и проблемы управления внешним государственным долгом // *Гуманитарный научный журнал*. 2020 г. № 1. стр. 11–18.
6. Урумов Т.Р. Практика управления государственным долгом в условиях глобализации // *Финансовый журнал / Financial Journal* № 4, 2013.
7. G'aniyev D.A. Davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik – O'zbekiston misolida // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (*Economics and Innovative Technologies*) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may–iyun (№ 00059).
8. Olimjonov Z.Z. Davlatning qarzlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda xalqaro me'yorlarni joriy etishning ahamiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 2022-yil, 3-son.
9. Azimova D.M. O'zbekistonda davlat qarzini boshqarishni takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2020-yil.
10. https://api.mf.uz/media/menu_attachments/IB_2023_uz.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
